# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 12/1
2023

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SP1342V3I12.1Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 12/1 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров ҚулматАширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

***МУНДАРИЖА***

**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**


*Елмуратов Икматулла Гайбуллаевич*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ БИРИНЧИ ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ТАРИХИ (1931-1936 ЙИЛЛАР) ........ 12-18

*Qitaybekov Azizbek Kenesbek o‘g‘li*
QORAQALPOG‘ISTONDA HAVO TRANSPORTINING SHAKLLANISHIDA “DOBROLET” AKSIYADORLIK JAMIYATINING O‘RNI ........ 19-23

*Nawrizbaeva Nurjamal Qudaybergenovna*
QORAQALPOQLARNING GILAMCHILIGI BILAN BOG’LIQ BA’ZI MAROSIMLAR ........ 24-29

*Сайдуллаев Фаррух Умедулло ўғли*
МУҲАММАД ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ ЭТНОЛОГИК ВА ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРИ ........ 30-35

*Berdiqulov Mirolim Tugalvoyevich*
TO‘DA-1 NEOLIT MAKONINING O’ZBEKISTON TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O’RGANISHDAGI O’RNI ........ 36-40

*Olimjonova Gulida Olimjon qizi*
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATI .. 41-47

*O‘ng‘alov Lazizbek Amiriddin o‘g‘li*
NUROTA TOG‘ TIZMASINING TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O‘RGANILISH TARIXI.. 48-53

*Rahmonov Faxriddin Shoymardonovich*
MILLIY DEHQONCHILIK MADANIYATINI ETNO-TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI (JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA) ........ 54-58

*Tilavboyev Muhammad*
JIZZAX VOHASIDA OT BILAN BOG‘LIQ URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR ........ 59-63

*To‘xtaboyev Xurmatullo Shomirza o’g’li*
O‘ZBEKISTON ILM-FANI RIVOJIDA FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETINING O‘RNI (MUSTAQILLIK YILLARI MISOLIDA) ........ 64-68

*Рахматиллаев Хасанбой*
МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ЭТНИК ТАРИХИНИ ЁРИТИШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛИ МАСАЛАЛАР ВА УСУЛЛАРГА ДОИР ........ 69-74

*Qurbonova Manzila Boqiyevna*
BUXORO VOHASI MILLIY SHIRINLIKLARI VA ICHIMLIKLARI ........ 75-80

*Ravshanova Gulora*
QASHQADARYO VOHASIDA MUNTAZAM QUROLLI HARAKATLAR TA’MINOTI (XX-asrning 20-yillarida) ........ 81-85

*Зарипбаев Уснатдин Оракбаевич*
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ҚОРАҚАЛПОЛҒИСТОН АССР ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ........ 86-90

*Baxronov Abdullo Haydar oʻgli*
OʻZBEKISTONDA TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI OʻRGANISHDA XALQARO EKSPEDISIYALARINING OʻRNI ........ 91-95

*Maxmatqulov Jasur Isroil oʻg’li*
GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MAVZUSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ........ 96-101

*Esanova Nilufar*
OʻZBEKISTON–TURKIYA HAMKORLIGI VA UNING NATIJASI (TOʻQIMACHILIK SANOATI MISOLIDA) ........ 102-106

*Норбоев Сарвар Қахрамон ўғли*
АФРОСИЁБДАГИ СЎҒД МУДОФАА ДЕВОРИГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (XX АСРНИНГ 50–80-ЙИЛЛАРИ) ........ 107-111

*Эсонов Зиёдбек Юлдашевич*
ФАРҒОНА ВОДИЙСИ АҲОЛИСИ ТЎҚИМАЧИЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ АНЪАНАЛАРИ ........ 112-117

*Tishabayeva Irodaxon Rasulovna*
1960-1970 YILLARDA OʻZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI ........ 118-124

*Toʻxtamisheva Fotima Musurmonovna*
MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VOHASI KASHTADOʻZLIGIDA OʻZGARISHLAR ........ 125-132

*Sattorov Nurbek*
SHIMOLIY BAQTRIYA VA ZARAFSHON MINTAQALARIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MADANIYATI SOHIBLARI ETNOMADANIY ALOQALARINING OʻZBEK XALQI ETNOGENEZI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI ........ 133-138

*Hazratov Nurali Burxon ugʻli*
QADIMGI KESH VILOYATI HUDUDIDAGI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARINING OʻRGANILISH TARIXIDAN ........ 139-144

*Mamatqulov Bekzod Sherozovich*
OʻZBEKISTONDA GAZ-OLTINGUGURT SANOATINING YUZAGA KELISHI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) ........ 145-149

*Berdiyev Jamshid*
VOHA JOY NOMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLAR VA PATRONIMLARNING TUTGAN OʻRNI ........ 150-155

*Djurakulov Sherzod Davronovich*
SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDI TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O’RGANILISHI TARIXI ........ 156-161

*Қурбанова Дилрабо Шерипбоевна*
ПАРЛАМЕНТ ТАРИХИ ВА ТАРИХШУНОСЛИГИ ........ 162-172

*Зухриддин Болтаевич Жунаев*
ХОРАЗМДА РЕСПУБЛИКА ТУЗУМИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР (1920-1924 йиллар) ........ 173-181

*Mamadiev Boxodir Bobojonivich*
QASHQADARYO MUZEYIDAGI NODIR OSTODON ........ 182-186

*Norqo'chqarov Xushvaqt Eshnazarovich*
AFG'ONISTONDA O'ZBEK TILINING QONUNIY ASOSLANISHI, O'ZBEKLAR IJTIMOIY-MADANIY HAYOTIDAGI O'RNI (XX ASR – XXI ASR BOSHLARI) ........ 187-197

*Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич*
ТОШКЕНТ ВОҲАСИ СЎНГГИ БРОНЗА ДАВРИ ТАРИХИ ТИЗИМИДА: ДАФН УДУМИ ВА МИГРАЦИЯ МАСАЛАЛАРИ ........ 198-203

*Азаматова Гулмира Байирбековна*
ОДАМ САВДОСИГА УЧРАГАН МИГРАНТ ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР ........ 204-208

*Tishabayeva Irodaxon Rasulovna*
1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI ........ 209-215

**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Ostonokulov Azamat Abdukarimovich, Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li*
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ........ 216-226

*Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich*
O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV TASHKILIY- IQTISODIY MEXANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI ........ 227-232

*Отабеков Отажон Ғайрат ўғли*
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ОПТИМАЛ СОЛИҚ ЮКИ ВА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ МАСАЛАЛАРИ ........ 233-243

*Шакирова Фароғат Болтаевна*
ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАҲОЛАШ ИНДИКАТОРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ........ 244-255

*Мамбетназаров Бахыт Бисенбаевич*
ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ........ 256-263

*Jumaniyazova Ro'za Quvondiq qizi*
TURIZM INFRATUZILMASI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI ........ 264-269

*Matniyozov Murodjon Rajabbayevich*
DESTINATSIYA IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA TURISTLARNING SODIQLIGI VA QONIQISHINING AHAMIYATI ........ 270-278

*Хамидова Зарифа Урол қизи*
ДАВЛАТ СЕКТОРИДА ИЧКИ АУДИТ ВА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ТАДБИРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ........ 279-291

*Toshaliyeva Saodat Toxirovna*
KICHIK TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI ........ 292-296

*Худойназаров Фахритдин Хаитович*
ИБН ХАЛДУННИНГ ИҚТИСОДИЁТГА ТАВСИЯЛАРИ ........ 297-304

*Nurullayev Hoshimjon Hamidovich*
GASTRANOMIYANING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI ........ 305-313

*Кадырова Шарофат Амоновна*
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ ........ 314-323

*Бегматова Зиёда Захиджановна*
ДАВЛАТ ИНТЕРАКТИВ ХИЗМАТЛАРИ ТИЗИМИ АСОСИДА КАДРЛАР БАНДЛИГИНИ ВА УЛАРГА ТАЛАБНИ БАҲОЛАШ ........ 324-332

*Shafkarov Bakhrom Khudoyberdievich*
TERRITORIAL FEATURES AND THEIR EFFECTIVE USE IN THE CULTIVATION OF VITICULTURE PRODUCTS ........ 333-340

*Masharipova Fazilat Axmedovna*
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI ........ 341-348

*Мусинов Дилшод Султанович*
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНИНГИЖТИМОИЙ ВА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛИ СИФАТИДА ........ 349-359

*Шакирова Юлдуз Сайдалиевна*
ВОПРОСЫ РАЗРАБОТКИ ДОРОЖНОЙ КАРТЫ АКТИВИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ ........ 360-368

*Абдивохидов Мамуржон Авазхон ўғли*
РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ МАЗМУНИ, ТАВСИФИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ........ 369-380

*To'xtasinova Михаууо Mirzasultonovna*
DAVLATNING INNOVATSION TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALASIGA ........ 381-388

*Курбанова Рахима Джамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна*
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 389-403

*Набиева Нилуфар Муратовна*
ОСОБЕННОСТИ КОМПЛЕКСА МАРКЕТИНГОВОГО ПРОДВИЖЕНИЯ КОМПАНИИ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ ........ 404-416

*Safarov Radjabboy Eshmuxammadovich*
KAMBAGʻALLIKNI QISQARTIRISHDA INDIVIDUAL DAROMADGA SOLIQLAR MEXANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI ........ 417-428

*Sharipova Zulayho*
SANOAT TARMOQLARI KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YOʻLLARI ........ 429-434

*Шарипов Акбар Илхамович*
ЧАКАНА САВДО КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РАҚАМЛИ МАРКЕТИНГНИ РОЛИ ........ 435-440

*Хаджаев Хабибулла Сагдуллаевич*
ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ АНТИМОНОПОЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ . 441-447

*Xamzayeva Dilfuza Samarovna*
SURXANDARYO VILOYATIDA TURISTIK MAHSULOTLARNI BAHOLASH VA SAMARALI RIVOJLATIRISH IMKONIYATLARI ........ 448-452

*Усманова Насиба Акбаржоновна*
ПУТИ РАЗВИТИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ УСЛУГ ........ 453-459

*Исхакова Сарвар Аюбовна*
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЗАНЯТОСТЬ И КВАЛИФИКАЦИЮ ПЕРСОНАЛА В СФЕРЕ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 460-467

*Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich*
INNOVATSION TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHDA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA UNI TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA QOʻLLASH IMKONIYATLARI ........ 468-479

*Toʻychiyeva Nodira Gʻulom qizi*
OLIY TA'LIMNI BOSHQARISHDAGI INNOVATSIYALAR. CHAT GPT YOHUD SUN'IY INTELLEKT ........ 480-485

*Абдураҳимова Саида Аҳмаджановна, Адилова Гўзал Абзаловна*
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ........ 486-494

*Maxsudov Sherzod Solijonovich*
TOʻQIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI ........ 495-500

*Tadjibekova Dilnoza Bakhtiyarovna*
ENHANCING FINANCIAL RESOURCE FORMATION IN BUSINESSES ........ 501-506

*Radjabova Malika Ziyodullayevna*
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI XUSUSIDA ........ 507-512

***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Asraqulova Adiba Nabiyevna*
ZAMONAVIY DAVRDA IQTISODGA FALSAFIY QARASHLAR ........................................513-520

*Жўраев Аҳмад Муҳаммадиевич*
ТИНЧЛИКПАРВАРЛИК ҒОЯЛАРИНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ АҲАМИЯТИ ........................................521-530

*Гуламова Мавжуда Ташпулатовна*
АХМАД ЗИЁУДДИН АЛ-КУМУШХОНАВИЙ АСАРЛАРИДА КОМИЛ ИНСОН ҒОЯЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ ........................................531-538

*Abduxolikova Nasiba Alijonovna*
YOSHLARNING ONLAYN TA’LIM JARAYONIGA TA’SIR ETUVCHI IJOBIY SALBIY OMILLAR ........................................539-544

*Yazdonov Zikirillo Shukurilloyevich*
QALANDARIYLIK VA UNING INSON, JAMIYAT TIZIMIDAGI O’RNI ........................................545-552

*Sharipova Barno Salimovna*
BIOETIK MADANIYATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY IMIJI ........................................553-558

*Xalikulova Umida Rustamovna*
AXBOROT MUHITINING OLIY TA’LIMGA TA’SIRI: KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV OMILLAR ........................................559-564

*Abbasova Maftuna Subxonovna, Temirova Xurshida*
OILA VA NIKOH MA’NAVIYATI, OILANI MUSTAHKAMLASH OMILLARI ........................................565-571

*Tog‘ayev Nodirjon Ergashevich*
AJDODLARIMIZ BOY ILMIY MEROSINING O‘ZBEKISTONDA MA’RIFATLI JAMIYAT QURISH HAMDA YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI ........................................572-576

*Kipchoqov Xomidjon Gulomovich*
JAVOBGARLIK PRINSIPINI SHAKLLANTIRISH AXLOQSHUNOSLIKNING ASOSIY MASALASI SIFATIDA ........................................577-581

*Raximova Rayxon Abdurasulovna*
ZAMONAVIY OILADA MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMONING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI ........................................582-586

*Агзамова Нилюфар Шухратовна*
“АДАБ АЛЬ-ТАБИБ” КАК ИСТОЧНИК НАЦИОНАЛЬНОЙ БИОЭТИКИ ........................................587-591

*Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich*
INTELLEKTUAL MADANIYAT YOSHLARNING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM MEZONI SIFATIDA ........................................592-596

*Nabiyev Mansur Jamxur o‘g‘li*
DEMOKRATIK JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY G‘OYALAR EVOLYUTSIYASI VA MODERNIZATSIYASI ........................................597-603

*Kenjayeva Dilrabo Romanovna, Xaydarova Larisa Sunnatovna*
GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MADANIYAT SOHASIDAGI O‘ZGARISHLARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI ........ 604-609

*Abduraximova Tursunoy Abduvoxid qizi*
O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY MOHIYATI ........ 610-615

*Tagayev Ganisher Xasanovich*
YOSHLAR ETNOESTETIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA BADIIY-ESTETIK OMILLARNING O‘RNI ........ 616-625

*Шоназаров Жамшид Шуҳратович*
БЕҲБУДИЙ ВА УНИНГ ДАВЛАТЧИЛИК ҒОЯСИ ........ 626-630

*Ҳамраев Сирож Абруевич*
ЖАМИЯТ ЯНГИЛАНИШИ ВА ТАДБИРКОР МАЪНАВИЯТИ ........ 631-637

*Nabiyev Bekzod Muxammadumarovich*
MAFKURAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TARG‘IBOT TEXNOLOGIYALARI: O‘ZBEKISTON VA XORIJ TAJRIBASI ........ 638-642

*Hashimova Gulsina Ismoyilovna*
HARBIY IJTIMOIY ISH VA HARBIY MADANIYATNING HARBIY XIZMATCHILAR FAROVONLIGINI TA’MINLASHDAGI ROLI ........ 643-648

*Karimova Gulnoza Yigitaliyevna*
AXLOQIY MADANIYAT TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURIYATI ........ 649-655

*Sharipova Kamola Usmonjonovna*
YANGI O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA’MINLASH BO’YICHA ILG‘OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASINI MILLIY STRATEGIYAGA TRANSFORMASIYALASH ISTIQBOLLARI ........ 656-661

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№12/1(3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*09.00.00- Фалсафа фанлари*

**Nabiyev Mansur Jamxur oʻgʻli,**
Katta oʻqituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

## DEMOKRATIK JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY GʻOYALAR EVOLYUTSIYASI VA MODERNIZATSIYASI

**Annotatsiya:** Ijtimoiy gʻoyalar evolyutsiyasi va modernizatsiyasi faqat sof nazariy yoki ijtimoiy jarayonlargina boʻlib qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi, madaniy an’analari, urf-odatlari va uning ruhiy xususiyatlarini ham oʻz ichiga oladi. Ushbu maqolada demokratik jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy gʻoyalar evolyutsiyasi va modernizatsiyasining asosiy jihatlari, oʻziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** demokratiya, demokratik jamiyat, gʻoya va mafkura, ijtimoiy gʻoya, evolyutsiya, modernizatsiya, ma’naviy meros, milliy gʻoya.

**Nabiyev Mansur Jamkhur ugli,**
Senior teacher, Jizzakh State Pedagogical University

## EVOLUTION AND MODERNIZATION OF SOCIAL IDEAS IN THE DEVELOPMENT OF A DEMOCRATIC SOCIETY

**Abstract.** The evolution and modernization of social ideas is not only purely theoretical or social processes, but also includes the lifestyle of the people, cultural traditions, customs and its spiritual features. This article highlights the main aspects, distinctive features of the evolution and modernization of social ideas in the development of a democratic society.

**Keywords**: democracy, democratic society, idea and ideology, social idea, evolution, modernization, spiritual heritage, national idea.

**Набиев Мансур Джамхур угли,**
Старший преподаватель, Джизакский государственный педагогический университет

## ЭВОЛЮЦИЯ И МОДЕРНИЗАЦИЯ СОЦИАЛЬНЫХ ИДЕЙ В РАЗВИТИИ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА

**Аннотация.** Эволюция и модернизация социальных идей являются не только чисто теоретическими или социальными процессами, но также включают в себя образ жизни народа, культурные традиции, обычаи и его духовные особенности. В данной статье освещаются основные аспекты, специфика эволюции и модернизации социальных идей в развитии демократического общества.

**Ключевые слова:** демократия, демократическое общество, идея и идеология, социальная идея, эволюция, модернизация, духовное наследие, национальная идея.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3I12.1Y2023N82

**Kirish.** Mustaqillik yillarida ijtimoiy gʻoyalarga asoslangan xalqimizning ijtimoiy adolat, huquqiy, tenglik, insonparvarlik va ezgulik tamoyillari qaror topgan, yuksak maʼnaviyatli va maʼrifatli jamiyat qurishdek asriy orzu- umidlarini roʻyobga chiqa boshladi. Ijtimoiy gʻoyalar – jamiyatimiz aʼzolarining dunyoqarashi, fikrlashishi va qarashlarida, ongi-tafakkuri hamda kundalik hayot tarzida, ularning ishonch va eʼtiqodida oʻz aksini topgan, ijtimoiy hayot normalarining qaror topishi jarayonidir. Ijtimoiy gʻoyalarni eʼtiqod darajasiga koʻtarish bir shaxs yoki kishining ishi emas. Butun bir millat va xalqning oliy janob fazilati boʻlmogʻi lozim, shundagina koʻzlangan maqsadlarga erishishning asosiy omillaridan biriga aylanadi.

Xalqimizning ijtimoiy gʻoyalar asosini tashkil etuvchi asoslari, milliy oʻzligi, tili, dini, qadriyatlari, anʼana va urf-odatlarini tiklash, avaylab asrash, uni kelajak avlodga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, ijtimoiy gʻoyalar evolyutsiyasi va modernizatsiyasi xalqimizning asriy anʼanalariga, islomning insonparvarlik mohiyatiga, milliy qadriyatlarimizga, rivojlangan davlatlarning ilgʻor tajribalaridan ijodiy foydalanib, oʻzimiz tanlagan taraqqiyot tamoyillariga tayanib, ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot asoslarini barpo etish, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurish vazifasi oldimizga maqsad qilib qoʻyildi. Zero, “Demokratiyani harakatlantiradigan, uni amalga oshiradigan va rivojlantiradigan kuch-insondir: demokratiya faqat xalq hokimiyati boʻlib qolmay, u har bir inson, har bir jamoa va butun xalqning oʻz mamlakati kelajagi, oʻz taqdiri oldidagi masʼuliyati hamdir”[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ijtimoiy gʻoyalarning evolyutsiyasi va modernizatsiyasining demokratik jarayonlari bilan bogʻliqligini Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, Oʻzbekistonning milliy demokratik taraqqiyoti, yurt istiqboli fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat barpo etish vazifasi bilan chambarchas bogʻliq ekanligini koʻra oldi. “Men faqat bir narsani — xalqlarning boshiga azob-uqubat keltiradigan va qon toʻkilishiga sabab boʻladigan boshboshdoqdik, hokimiyatsizlik va adovat boʻlishini istamayman. Demokratiyani hamma narsani qilish mumkin deb, oʻzboshimchalik bilan talqin etish ana shunga olib keladi. Men demokratik jamiyatni, eng avvalo qonunga quloq solish deb bilaman. Shaxsning haq-huquqlarining buzilishiga yoʻl qoʻyib boʻlmasligini belgilab beradigan yozilmagan qonunlar, maʼnaviy qoidalar toʻplami zarur. Yaʼni, odam jamiyatdagi mezonlar doirasida oʻziga erkinlik va cheklashlar darajasini belgilab oladi. Bu rivojlanib boruvchi uzluksiz jarayondir.”[2]

Demokratik jamiyatning ijtimoiy gʻoyalar evolyutsiyasi va modernizatsiyasi jarayonlarining shakllanishi va takomillashishiga taʼsir koʻrsatadigan omillarni tahlil qilish demokratik jamiyat tushunchasining namoyon boʻlish xususiyatlari va asosiy tamoyillarini tahlil etishni taqozo etadi. Ayni paytda, milliy gʻoya huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy vositalaridan biri ekanligini ham eʼtirof etmoq lozim. Ijtimoiy gʻoyalar evolyutsiyasi va modernizatsiyasi jarayonlari milliy gʻoyamizning shakllanish asosini tashkil etadi. Ilmiy izlanishlar jarayoni shuni koʻrsatadiki, “milliy gʻoya davlat va jamiyatning qarashlari, intilish, xohish va maqsadlari majmuidan iborat boʻlibgina qolmasdan, balki u xalqimizning tarixiy, etnik hamda ijtimoiy taraqqiyotning huquqiy asoslarini, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, maʼnaviy omillari, obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarini ham oʻzida mujassam etadi”[3]. Milliy gʻoya imorat boʻlsa uni tashkil etuvchi har bir unsurlar ijtimoiy gʻoyalardir.

Shuning uchun ham ijtimoiy gʻoyalarning vujudga kelishining xalqimiz ruhiyati, mafkuraviy, siyosiy jarayonlar bilan bogʻliq jihatlarini tahlil qilish faqatgina nazariy emas, balki

amaliy ahamiyatga molikdir. Bu esa, oʻz navbatida, mamlakatimizda barpo etilayotgan huquqiy demokratik jamiyatning oʻziga xosligi, milliy gʻoya, xalqimiz tarixiy xotirasi, madaniy merosi, qadriyatlari, an’ana, urf-odatlari, orzu-umidlari namoyon boʻlishini oʻrganishni muayyan zaruriyatga aylantiradi.

Oʻzbekistonda shakllanayotgan demokratik davlat va uning namoyon boʻlish shakllari toʻgʻrisida fikr yuritar ekanmiz, “demokratiya” tushunchasining mohiyati va mazmuni xalqaro miqyosda e’tirof etilgan tamoyillari Markaziy Osiyo mintaqasi va umuman musulmon sharqidagi demokratik qadriyatlar xususidagi fikrlarimizga aniqlik kiritish lozim.

Falsafa ensiklopedik lugʻatida, demokratiya (yunoncha demos va xalq kratos-hokimiyat) – fuqaro erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda oʻrnatilgan va yuzaga chiqarilgan siyosiy tuzum[4], deb ta’rif berilgan.

Demokratik jamiyat, avvalo xalq hokimiyati tamoyillariga asoslangan, fuqarolariga erkinligi va teng huquqliligi kafolatlangan siyosiy tizim ekanligini etirof etish, fikrimizcha konseptual ahamiyatga egadir. Mazkur siyosiy tizimda shakllanayotgan demokratik jarayonlar haqidagi I.A.Karimovning quyidagi fikriga e’tibor qaratmoq kerak. Unda ijtimoiy taraqqiyot kabi demokratik jarayonlarning rivojlanishi ham tartibsiz ravishda emas, balki ob’yektiv qonuniyatlar asosida amalga oshishi ta’kidlanadi. “Demokratik jarayonlar, oʻz ob’yektiv qonuniyatlari asosida rivojlanadi. Ularni oʻrganib borish, ularga amal qilish talab etiladi”[5].

Demak, ijtimoiy gʻoyalar va jarayonlar demokratik jamiyatning muhim atributi sifatida quyidagicha ta’rifga ega boʻladi. Ijtimoiy gʻoyalar – bu mamlakatimizda istiqomat qiluvchi xalq irodasining namunasidir. Pirovard natijada, demokratiya shakl va mazmun birligi sifatida doimiy rivojlanish va takomillashish jarayonida boʻladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, har bir davlat, jamiyat, millat yoki muayyan bir tarixiy avlod har qanday ijtimoiy munosabatlar sharoitida ham demokratik jarayonlarni oʻzlariga mos, oʻzlariga xos, ma’qul shaklini yaratadilar. Shu asnoda, ular demokratiyaning takomiliga oʻzlarining hissalarini qoʻshadilar.

Demokratiya davlat ijtimoiy normalar va gʻoyalar asosida inson munosabatlarini belgilaydi. Demokratiyaning asosiy talablari: koʻpchilik hokimiyati, fuqarolar teng huquqligi, ular huquq va erkinliklari himoyalanganligi, konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi, hokimiyatning boʻlinishi, davlat boshligʻi va vakolatli organlarning saylab qoʻyilishi. Bular qariyb barcha mamlakatlar Konstitutsiyalarida belgilab qoʻyilgan tartib-qoidalardir.

Ma’lumki, zamonaviy Gʻarbda huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyatini barpo etish, demokratik davlatni shakllantirish bilan bogʻliq oʻziga xos qarashlar mavjud. Demokratiya hech qanday jamiyatga yoki davlatga chetdan oʻz-oʻzidan kirib kelmaydi, avvalo jamiyatda muayyan demokratik tizimlar shakllanishi uchun ob’yektiv zaruriyat yuzaga kelishi kerak. Hamda demokratik jarayonlarning qaror topishida muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy normalar va gʻoyalar zarur hisoblanadi. Bu ijtimoiy gʻoyaviy jarayonlar turli davlatlarning ijtimoiy turmush tarzidan, milliy qadriyatlaridan kelib chiqib turli tarixiy davrlarda vujudga kelishi va turli xil koʻrinishlarda boʻlishi mumkin. “Har bir millat oʻz ruhiyatidan kelib chiqib bu masalaga yondashishi zarur. Odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi bilan demokratik oʻzgarishlar darajasi va sur’atlari bir-biriga qanchalik munosib boʻlishiga bogʻliq. Tarixiy tajribaning koʻrsatishicha, demokratik jarayonlarni chetda nusxa olib koʻr-koʻrona nusxa koʻchirish aslo samara bermaydi. Aksincha, bunday yoʻl chalkash va xatarli oqibatlarga olib kelishi mumkin”.[6] Darhaqiqat, Oʻzbekistonning hozirgi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy gʻoyalarning

Gʻarb mamlakatlariga xos boʻlgan demokratiyani majburlab tiqishtirishga boʻlgan urinishlar foydadan koʻra zararli ekanligini tajriba koʻrsatib turibdi. Binobarin, Gʻarb va Sharqda demokratiyaning elementlari bir-biridan farq qiladi. Agar Gʻarbda ijtimoiy-gʻoyaviy harakatlarning faolligi natijasida demokratiya tushunchasi tezroq kirib kelgan va shakllangan boʻlsa, Sharqda esa bu jarayon birmuncha keyinroq oʻziga xos shaklda namoyon boʻlgan. Shuning uchun ham demokratiyaga erishish uning asoslarini yaratish uchun aksariyat davlatlarga oʻn-yuz yillab vaqt kerak boʻlgan boʻlsa, koʻpgina davlatlarda endi-endi bu jarayonga kirishilmoqda.

**Tahlil va natijalar.** Demokratiya tamoyillarini qaror toptirish, demokratik jamiyatni shakllantirish har doim ham silliq kechaveradigan jarayon emas. Bu uzoq va murakkab jarayondir. Chunki, ba’zi manfaatlar toʻqnash kelgan joyda doimo demokratik tamoyillarga raxna solingan yoki chetlab oʻtilgan.

Demokratiya bu jamoa tomonidan qabul qilinadigan qarorlar majmui boʻlib, u oʻzida har tomonlama mukammal tizimni mujassamlashtiradi va unda butun hamjamiyatga tegishli boʻlgan qarorlar uning barcha a’zolari tomonidan qabul qilinadi hamda uning barcha a’zolari qarorlarni qabul qilish jarayonida qatnashishda teng huquqqa ega boʻladi. Devid Bitem fikriga koʻra, “... demokratiya, bizlar odatlanganimizdek, faqat hukumat va davlat sohasiga tegishli emas. Demokratiya tamoyillari turli xil jamiyatlardagi qarorlarning jamoa tarzida qabul qilinishiga tegishlidir. Davlat darajasidagi demokratiya bilan boshqa ijtimoiy institutlardagi demokratiya oʻrtasida uzviy bogʻliqlik mavjud.”[7]

Demokratik qadriyat bu — insoniyat hayotidagi demokratik tuzumni aks ettiruvchi real va ideal ne’matlar boʻlgan jamiyat hodisalari (erkinlik, hurfikrlilik, ozodlik, teng huquqlilik, hokimiyatning boʻlinishi, ozchilikning koʻpchilikka boʻysunishi, saylovlarda xalqning oʻz xohish istaklarini erkin namoyon qilishi (bildirishi), qonun ustuvorligi, xalqni hokimiyat manbai deb tan olinishi va boshqalar majmuidir.

Demokratiyaning pirovard maqsadi bu jamiyatdagi barcha fuqarolarning teng huquqligini ta’minlashdan iborat ekanligidir. Kunda har bir insonning oʻziga mos qadr-qimmatga ega ekanligi hech bir insonning hayoti boshqalarning hayotidan qadrliroq emasligini e’tirof etadi. Zero, — “Oʻzbekiston kelajagi buyuk davlat. Bu mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu — insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e’tiqodlaridan qat’iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlab beradigan davlatdir”[8] aynan insonlarning teng huquqliligi, ularning shaxsiy manfaatlari va fikrlari hukumat siyosatida albatta inobatga olinishini nazarda tutadi.

Demokratiya universal boʻlsa ham, demokratik jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy gʻoyalar evolyutsiyasi va modernizatsiyasi tadrijiy amalga oshadigan jarayonlardan boʻlib, uni vujudga keltiradigan, shakllantiradigan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tarixiy, geografik sharoitlar turli xalqlar va davlatlar, millatlarning ijtimoiy-gʻoyaviy ta’siri ma’lum darajada kirib keladi. Demak, ijtimoiy gʻoyalarning evolyutsiyasi va modernizatsiyasi, rivojlanish jarayonlari millat ruhiyatidan, mentalitetidan kelib chiqadi va mamlakatning, aholining rivojlanish darajasi asosiga qarab demokratik jarayonlar shakllanib boradi.

Misol uchun, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarni yaxshilashga qaratilgan har bir yilga nom berish ijtimoiy gʻoyalarning modernizatsiyasini koʻrsatadi. Yillarga berilgan nomlar har yili jamiyat hayotining ma’lum ma’nodagi ijtimoiy muhitini yaxshilashga va ijtimoiy gʻoyalar transformatsiyasini oʻzida aks ettiradi. Xususan har bir yilga nom berilishi

demokratik jamiyat taraqqiyotining muhim elementlaridan biri boʻlib hisoblanib, demokratik jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy gʻoyalar evolyutsiyasi va modernizatsiyasi jarayonini koʻrishimiz mumkin. Berilgan yil nomlari bilan birgalikda dastur ishlab chiqilib, shu asosida jamiyatning shu sohasi rivojlantiriladi. Ijtimoiy hayot shakllari rivojlantiriladi.

Demokratik davlat boshqaruvida teng huquqiylikni ta’minlashni kafolatlash muhim ahamiyatga ega. I.Karimov ta’kidlagandek: “...yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishni kafolatlashi kerak.”[9]

Bugungi kunga kelib faqat demokratiya bilangina tinch-osoyishta rivojlanish, taraqqiy etishni maksimal darajada kafolatlash mumkinligi tobora aniq boʻlib bormoqda. Oʻz oldimizdagi ezgu maqsadlarga erishishni qoʻygan jamiyat eng avvalo mamlakat ijtimoiy hayot barqarorligini ta’minlashi zarur hisoblanadi.

Demokratiya tamoyillaridan eng muhimlaridan biri sifatida demokratik jamiyat qurishning dunyoda e’tirof etilgan tamoyillarini tan olish va demokratiyaning milliy-madaniy meros va milliy qadriyatlar bilan bogʻliq milliy xususiyatlariga tayangan jamiyatning ijtimoiy gʻoyalar evolyutsiyasi va modernizatsiyasi transformatsiya jarayonlariga koʻp jihatdan bogʻliq hisoblanadi.

Demokratik tamoyillardan biri xalq, davlat hokimiyatining manbai ekanligidadir, uning xohish irodasi davlat siyosatini belgilab beradi. Pirovard natijada bu siyosat inson va jamiyat farovonligiga, jamiyatning barcha a’zolarining ijtimoiy kelib chiqishi, millati, diniy e’tiqodidan qat’iy nazar, munosib turmush tarzini ta’minlashga qaratilgan boʻladi. Demak, demokratik jamiyatda fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligidan tashqari, qabul qilinayotgan hukumat qarorlarining jamiyat a’zolari tomonidan bajarilishini ta’minlash, kishilarning davlatni boshqarishda qay darajada ishtirok etishi bilan ham bogʻliq boʻladi.

**Muhokama.** Davlat bilan birga vujudga kelgan demokratiya insoniyat tarixi davomida turli milliy-madaniy shart-sharoitlarga moslasha boradi. Demokratik davlatda inson manfaati, qadr-qimmati, hayoti har narsadan yuqori turadi. Biroq demokratiya hamma narsada erkinlik emas, qonunga asoslangan erkinlikdir. Demokratiyaning ajralmas qismi intizom, qonunlarni hurmat qilish, boshqalarning haq-huquqini himoya qilishdir. Demokratiya tartibotlari huquqiy davlatda mukammal rivojlanib boradi. Professor F.Musayev ta’kidlab oʻtganlaridek, “Erkinlik – bebaho qadriyat va insonning asosiy mohiyatiga oid xarakteristikasidir.”[10] Darhaqiqat, inson erki, huquqi fuqarolik jamiyatidagi asosiy demokratik qadriyatlardir.

Ma’lumki har qanday demokratik tuzumning mohiyati undagi ijtimoiy, siyosiy, huquqiy qadriyatlar bilan belgilanadi. Bu qadriyatlarning subyekti ham, obyekti ham shaxs-jamiyat-davlat tizimida, ular oʻrtasidagi munosabatlarda namoyon boʻladi.

Shaxs-jamiyat va shaxs-davlat tizimlari oʻrtasidagi aloqalar dinamik xarakterga ega boʻlgani uchun jamiyat – davlat tizimi faol harakat qiladi, ularda boʻlayotgan oʻzgarishlarni tez ilgʻab zarur chora-tadbirlar koʻllab boriladi. Shaxs-jamiyat, shaxs- davlat va jamiyat – davlat tizimlari nisbiy ma’noda avtonomdir, ammo ularning yaxlit tizim tarzida harakat qilishini ta’minlovchi tamoyillar mavjud. Ularga ozchilikning koʻpchilikka boʻysunishi, huquq va erkinliklar, fuqarolarning teng huquqliligi. Bozor iqtisodiyoti qonunlarining ustuvorligi, umuminsoniy demokratik qadriyatlar kabilar kiradi.

Jamiyatning barqarorligi va rivojlanishi asosan ozchilikning koʻpchilikka boʻysunishi bilan taʼminlanadi. Biroq, Gʻarb demokratiyasida jamiyatning barcha aʼzolari qoʻllab quvvatlaydigan tartib qoida, meʼyor va qadriyatlar yoʻq. Oʻzbekistonda esa sharqona demokratiyaga muvofiq, oʻzaro ahil-inoq, jamoa boʻlib yashash, bir-birini qoʻllab-quvvatlash, el-yurt manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qoʻyish tarixiy madaniy anʼanadir. Umuman, insoniylik, axloq-odob, maʼnaviy boylikka intilib yashash azaldan xalqimiz asrab, avaylab kelayotgan qimmatli meros sifatida ulugʻlanadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilganda, birinchidan, demokratik jamiyatning shakllanishi tabiiy jarayon. Mazkur jarayonda qoʻyidagi yoʻnalishlarni; a) jamiyatdagi demokratik oʻzgarishlarning islohotlar bilan hamohang uygʻunligi; b) ijtimoiy oʻzgarishlarning kishilar ongida obʼyektiv inʼikos tarzida vujudga kelishi; v) aholining mutlaq koʻpchiligi uchun zaruriy iqtisodiy-maʼnaviy ehtiyojga aylanishi; g) ijtimoiy ong, yaʼni psixologik va mafkuraviy tuygʻularning uygʻunligi sifatida namoyon boʻlishini alohida koʻrsatish lozim.

Ikkinchidan, Oʻzbekistonda demokratik jamiyat qurish ehtiyoji, mamlakat hamda fuqarolarni kelajakka daʼvat qiladigan, taraqqiyotga undaydigan omillardan biri tarzida yuzaga keladi, kishilarni boshqarish vazifasini bajarayotgan siyosiy partiyalar, rahbar shaxslar aql-zakovati, salohiyatini oʻzida ifodalaydi.

Uchinchidan, Respublikamizning turli mintaqalarida yashaydigan aholi oʻrtasida mahalliychilik, qarindosh-urugʻchilik kabi subʼyektiv hissiyotlarning ustuvor boʻlib ketmasligiga, xilma-xil intilish hamda harakatlarni umumxalq va yagona vatan manfaatlari yoʻlida uygʻunlashtirishga yordam beradi.

Toʻrtinchidan, jamiyatda olib borilayotgan islohotlar va oʻzgarishlarning asosiy maqsadi boʻlgan demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, qonunning ustuvorligi va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik asosiy xususiyatlari boʻlgan tizimga intilishlarini umumlashtirish uchun imkon yaratadi.

Beshinchidan, mamlakatning ichki hayotini boshqarishning asosiy mezonlaridan biri boʻlish bilan birga, tashqi siyosatda davlatning salohiyatini koʻrsatadigan, uning jahon hamjamiyati va xalqaro maydondagi obroʻ-eʼtiborini namoyon qiladigan maʼnaviy qadriyat mezonlarini, inson huquqlari, fuqarolarning imkoniyatlari umumbashariy muammolarni hal qilish istiqbollari qay tarzda amaliyotga aylanayotganligini bildiradigan omil boʻlib xizmat qiladi.

Albatta, bu tamoyillar oʻz navbatida xilma-xil tarzda turli shakllarda namoyon boʻladi. Ijtimoiy jarayonlarning talabi va yoʻnalishiga koʻra, ularning biri muayyan muddatga oʻz ahamiyatini yaqqolroq namoyon qilishi ham mumkin. Ammo ularning uygʻunligi, uygʻonishlar jarayonidagi serqirraligini umumlashtirish ehtiyoji doimo saqlanib qoladi.

Umuman olganda, demokratik jamiyat qurish mamlakatimizdagi islohotlar va tub oʻzgarishlar, ijtimoiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va uning uzluksizligini taʼminlashda turli millatlar, diniy tashkilotlar, siyosiy partiyalar, davlat va jamoat tashkilotlarining hamjihatligiga erishish ehtiyoji huquqiy demokratik jamiyatni shakllantirishni mamlakatimiz taraqqiyoti hozirgi davrining zaruriyati sifatida namoyon boʻladi.

## Адабиётлар / Литература / References


1. Энг катта бойлигимиз-тинчлик ва барқарорликни асрайлик Назаров Қ. муҳаррирлигида.-Академия, 2006.-Б. 10.
2. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида – Т.:Ўзбекистон, 2012. – Б.346 -347.
3. Тўраев Ш. Демократик жараёнлар ва миллий ғоя.-Т.:Маънавият,2008. – Б.4.
4. Фалсафа энциклопедик луғат –Т.:"Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2010. – Б. 93.
5. Каримов И.А Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Том 3. -Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 8.
6. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари-энг олий қадрият. Том -14- Т.: Ўзбекистон, 2006. – Б.69.
7. Битэм, Дэвид 80 саволга 80 жавоб. - Т.:Ўзбекистон, 2001. – Б.16-17.
8. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. -Т.:Ўзбекистон, 1992. – Б.15-16.
9. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. -Т.:Ўзбекистон.1992. – Б. 16.
10. Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий ҳуқуқий асослари – Т.:Ўзбекистон, 2007. – Б.83.
11. Turdiyev Б. The development of democratic society and spiritual renewal in the views of eastern and western thinkers //Общество и инновации. – 2020. – Т. 1. – №. 1/s. – С. 710-717.
12. Sobirovich T. B. Evolution of ideas and views on the development of democratic society and spiritual renewals //Scientific Bulletin of Namangan State University. – №. 10. – С. 243-250.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I12.1Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 12/1 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари"** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).